

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“SOLIQLAR VA SUG'URTA ISHI” KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.2(575.1)

ABDURASHIDOV ABDUSAMAD ABDURAHMONOVICH
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI AKSIZ SOLIG'IDAGI
MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

**60410200 - “Soliqlar va soliqqa tortish”
mutaxassisligi bo'yicha**

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:


Phd, dos. SH.SH. Saipnazarov

Toshkent-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “ _____ ” kafedrasida
dastlabki himoyadan o'tgan.

_____ -sonli bayonnoma “ _____ ” _____ 2023 yil.


Kafedra mudiri: prof. B.K.Tuxliyev _____



Ilmiy rahbar: Phd, dos. SH.SH. Saipnazarov _____



Talaba: A.A. Abdurashidov _____



Dissertatsiya «Moliya va buxgalteriya hisobi» fakultetida 2023-yil « _____ »
_____ № _____ raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dekan _____ A.U.Burxanov

ANNOTATSIYA

Budjet daromadlarida egri soliqlarning ulushi va ularning budjetda turgan o`rni dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha izlanish olib bordik. Shuningdek mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar fikr mulohozalari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy meyoriy hujjatlarni o`rganib chiqilib, adabiyotlar sharhi tayorladik. Ilmiy ishning amaliy ahamiyatini oshirish uchun, respublikamiz soliq tizimida aksiz solig`ini undirish va uni prognoz qilish mexanizmini tahlil qilish asosida unda mavjud bo`lgan kamchiliklarni bartaraf etish xamda rivojlantirish hususiyatlari buyicha alohida izlanish olib borildi. Mavzuni tahlil qilish natijasida aksiz solig`iga oid muammolar ham imkon qadar o`rganilib shu buyicha o`z fikr va mulohazalarimizni berib o`tdik. Bundan tashqari xulosalar va takliflar ham yetarlicha berib kelgusi istiqboliy pragnoz holatlar ham keltirib o`tildi.

Kalit so`zlar: *soliq stavkasi, soliqqa tortish usullari, aksiz osti mahsulotlar, import tovarlar, aksiz solig`i stavkalari, soliq bazasi, aksiz marka, soliq tizimi.*

ANNOTASIA

The share of curved taxes in budget revenues and their place in the budget is one of the current topics. Therefore, during the study, we conducted a thorough research within the framework of the topic. Other research works on the topic, opinions, scientific articles of maxalli and foreign scientists, as well as local documents on the topic were studied and published. To increase the practical importance of scientific work, on the basis of the analysis of the mechanism for levying excise taxes in the tax system of our republic and its forecasting, a special study was carried out on the specifics of development in the country to eliminate the shortcomings contained in it. As a result of the analysis of the topic, the problems related to excise taxes have also been studied as much as possible and we have given our feedback and opinions. In addition, conclusions and suggestions were also given enough future pagnosis cases.

Keywords: tax rate, taxation methods, excise subcategories, import goods, excise tax rates, tax base, excise mark, tax system.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----------|
| Annotatsiya..... | 3 |
| Mundarija..... | 5 |
| Keltirilgan jadvallar ro'yhati..... | 7 |
| Keltirilgan rasmlar ro'yhati..... | 8 |
| I Bob.Kirish..... | 9 |
| 1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi..... | 9 |
| 1.2 Tadqiqot maqsadi va vazifalari..... | 11 |
| 1.3 Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari... .. | 11 |
| 1.4 Tadqiqot obyekti va predmeti..... | 12 |
| 1.5 Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati..... | 12 |
| 1.6 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi..... | 13 |
| II BOB. ADABIYOTLAR SHARXI..... | 18 |
| 2.1 Kirish..... | 18 |
| 2.2 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharxi..... | 18 |
| 2.3 Mavzuga oid maxalliy meyoriy-xuquqiy xujjatlar sharxi..... | 23 |
| 2.4 Xulosa..... | 23 |
| III BOB.METODOLOGIYA..... | 24 |
| 3.1 Tadqiqot tizimi..... | 24 |
| 3.2 Ma'lumotlarni to'plash jarayoni..... | 24 |
| 3.3 Taxlil uchun qo'lanilgan usullar..... | 24 |
| 3.4 Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar..... | 30 |
| 3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi..... | 31 |
| 3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar..... | 31 |
| IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR..... | 32 |
| 4.1 O'zbekiston Respublikasi budget daromadlari shakllanishida aksiz solig'ining tutgan o'rni | 32 |
| 4.2 Aksiz solig'i tushumlarini prognozlashda soliq obyekti va soliq solish bazasini aniqlash tartibi | 37 |
| 4.3 Aksiz solig'i tushumini prognozlashda foydalaniladigan ma'lumotlar tahlili...42 | 42 |

| | |
|--|-----------|
| 4.4 Soliqni hisoblash, hisob-kitoblarini taqdim etish hamda soliqni to'lash tartibi. | 51 |
| V BOB. XULOSA..... | 56 |
| 5.1 Tadqiqot savoliga tegishli natijalarining qisqacha ifodasi..... | 56 |
| 5.2 Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari..... | 57 |
| 5.3 Tadqiqot cheklolari va kelgusi tadqiqot uchun takliflar..... | 59 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... | 61 |

I BOB. KIRISH

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan "2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" qabul qilindi¹. Unga muvofiq iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish maqsadida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish choralari belgilandi.

1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida soliq munosabatlarini takomillashtirish o'ta muhim va murakkab muammolardan biri bo'lib, soliqqa tortish tizimining eng optimal variantini topish ustida uzluksiz izlanishlar olib borilmoqda. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida soliq siyosatini yanada erkinlashtirish yo'nalishlarining belgilanishi, jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, xususiyl tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay soliq muhitini yaratish ushbu sohada erishiladigan yutuqlar garovidir. Soliq yukini kamaytirishga qaratilgan respublikamizda yuritilayotgan soliq siyosati iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishbilarmonlik faolligi va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.